



## TA'LIM JARAYONIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI (MUSIQA TA'LIMI MISOLIDA)

**Namozova Sumangul Yaqubovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti  
Musiqiy ta'lim yo'nalishi talabasi  
sumanaxonnamozova@gmail.com

**Kosimov Abdulaziz Durdikulovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim"  
kafedrasi Katta o'qituvchisi, dotsent v/b.  
Abdulazizkosimov90@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19843235>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 24-aprel 2026 yil  
Ma'qullandi: 26-aprel 2026 yil  
Nashr qilindi: 28-aprel 2026 yil

### KEYWORDS

*Kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, musiqa ta'limi, musiqiy eshituv, ijodkorlik, pedagogik texnologiyalar, amaliy ko'nikmalar.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning shakllanishi va rivojlanishi, ayniqsa musiqa ta'limida uning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning musiqiy eshituv qobiliyati, ijodiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning o'рни tahlil qilingan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida musiqa darslarini tashkil etish masalalari ko'rib chiqilgan.*

Hozirgi kunda ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlar o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga qaratilgan. Shu bois kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Musiqa ta'limida kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning musiqiy idroki, eshituv qobiliyati, ijodiy fikrlashi va sahnaviy madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar musiqani nafaqat tinglash, balki tushunish, tahlil qilish va ijro etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Pedagogik adabiyotlarda kompetensiyaviy yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mantiqiy davomi sifatida talqin etiladi. A.V. Xutorskoyning fikricha, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini "bilim berish"dan "hayotga tayyorlash" bosqichiga olib chiqadi. I.A. Zimnyaya esa kompetensiyalarni shaxsning integrativ sifatleri sifatida ko'rib, ularni bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy tajriba birligi deb hisoblaydi.

Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat ehtiyojlari, mehnat bozori talablari hamda shaxs rivojiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu yondashuv ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifa — o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslasha oladigan, mustaqil fikrlovchi va ijodkor mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Shu nuqtai

nazardan kompetensiyaviy yondashuv ta'lim mazmunini yangilashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanishida ta'lim natijalarini qayta talqin qilish muhim o'rin tutadi. An'anaviy yondashuvda ta'lim natijasi bilim, ko'nikma va malakalar bilan o'lchangan bo'lsa, kompetensiyaviy yondashuvda ushbu komponentlarning real faoliyatdagi qo'llanilishi asosiy mezon sifatida qaraladi. Bu holat ta'lim jarayonini rejalashtirish, o'qitish metodlarini tanlash va baholash tizimini takomillashtirishni talab etadi.

**Muhokama va natija.** Kompetensiyaviy yondashuv musiqa ta'limida bir qator muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, o'quvchilarda musiqiy eshituvni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda solfejo mashqlari, ritmik topshiriqlar va tinglab tahlil qilish usullari keng qo'llaniladi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Masalan, qo'shiqlarni mustaqil tahlil qilish, yangi ohanglar yaratish yoki jamoaviy ijro jarayonida faol ishtirok etish orqali ularning ijodkorligi rivojlanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan interfaol metodlar, multimedia vositalari va raqamli dasturlar musiqa ta'limida kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

#### **Natija**

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan musiqa darslari quyidagi natijalarga olib keladi:

- o'quvchilarning musiqiy eshituv qobiliyati rivojlanadi;
- ijodiy fikrlash darajasi oshadi;
- amaliy ijro ko'nikmalari shakllanadi;
- jamoada ishlash va sahna madaniyati rivojlanadi.

Shuningdek, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortib, ular mustaqil faoliyatga intiluvchan bo'lib boradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, musiqa darslarida kompetensiya tushunchasini ochib berish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kompetensiya o'quvchining nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay olishi, ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va jamoada ishlash ko'nikmalarini namoyon eta olish qobiliyatini anglatadi.

Musiqa darslarida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarning estetik didi, ijodkorligi, kommunikativ va ijtimoiy faolligi rivojlanadi. Bu esa ularning nafaqat musiqa sohasida, balki hayotiy faoliyatda ham muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, kompetensiyaviy yondashuv musiqa ta'limining muhim va samarali yo'nalishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv musiqa ta'limida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat bilimga ega bo'ladilar, balki uni amaliyotda qo'llash, ijod qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini ham egallaydilar.

Kelgusida musiqa ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni yanada takomillashtirish va innovatsion metodlarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid qarorlari.
2. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari.
3. Abduqodirov A. "Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'limdagi o'rni".

4. Ishmuhamedov R. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari".
5. Yuldashev J. "Musiqqa ta'limi metodikasi".
6. Muslimov N. "Kasbiy ta'lim pedagogikasi".
7. Xutoriskiy .A.V "Kompetennostniy podoxod v obrazovanie"
8. Durdikulovich, A. K. (2025). APPLICATION OF SIMULATIVE TECHNOLOGIES IN TRAINING MUSIC EDUCATORS BASED ON THE CREDIT-MODULE SYSTEM. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(02), 71-73.
9. Durdikulovich, K. A. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING ESHITUV QOBILİYATLARINI HAMDA OVOZINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. IMRAS, 7(4), 204-208.
10. DURDIKULOVICH, K. A. (2025). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SAN'AT, MUSIQA VA IJODIY FAOLIYAT ORQALI ESTETIK TARBIIYALASH. KONFERENSIYA, 1(1), 333-340.
11. Kosimov, A. (2025). APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION: FORMATION OF TEACHER COMPETENCE BASED ON SIMULATION AND REFLECTIVE ANALYSIS APPROACHES. International Journal of Artificial Intelligence, 1(3), 159-164.
12. Durdikulovich, A. K. (2025). METHODOLOGY FOR APPLYING SIMULATIVE TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 12(02).
13. Durdikulovich, A. K. American Academic publishers, volume 05, issue 02, 2025.
14. Durdikulovich, K. A. APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION: FORMATION OF TEACHER COMPETENCE BASED ON SIMULATION AND REFLECTIVE ANALYSIS APPROACHES.
15. QIZI, N. M. N. (2025). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MA'NAVIY-MA'RIFIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI. KONFERENSIYA, 1(1), 394-399.
16. Niyozova, M. N. Q. (2023). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik diagnostikani amalga oshirishda tarbiyachining roli. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 331-335.